

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

CULTURAL - HOUSEHOLD SERVICE IN RURAL AREAS GENERAL DEVELOPMENT OF THE SHOW

Assoc, Samarkand State Architecture and Construction University

M. Khudoyarova

Samarkand State Architecture and Construction University

O'. Mamatkulov, J. Annakulov, A. Takhirov

Annotatsiya: Qishloq aholisiga umumiy xizmat qilish tarmoqlarini, qishloqlararo madaniy- maishiy xizmat ko'rsatishning yagona tizimini, ularning tarkiblarini, xizmat qilishning yangi formalarini, ularning o'zaro funktsional aloqalarini aniqlash, yangi tipdagi binolarni yaratish, shaharsozlikning kompozitsiyaviy shakllantirishda ratsional bo'lgan qishloq jamoat markazlarini Respublika hududlarining fizik - geografik, tabiiy iqlim sharoitlariga qarab guruhlarga bo'linishi asosida qishloq joylashuv turlarida qishloqlarga madaniy –maishiy xizmat qilish tizimining regional farqlarini, an'analarni hisobga olgan holda arxitektura-loyihaviy kompozitsiyasini, arxitekturaviy ansamblni tashkil qilish muammolari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: madaniy - maishiy xizmat, tarmoqlar, joylashuv zonolari, jamoat markazlari, ijtimoiy taraqqiyot, kompozitsiya, ansambl.

Respublikamiz hukumati qishloq hududlarini tubdan o'zgartirish, qishloq aholisiga umumiy xizmat qilish tizimini rivojlantirish, hududlarda ijtimoiy infrastrukturani yaratish muammolariga katta axamiyat bermoqda. Har yili yangi qishloqlar paydo bo'lmoqda mavjud qishloqlar qayta tiklanmoqda. Qishloq aholisiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish hozirgi zamon talablariga javob beradigan shahar va qishloq orasidagi mavjud tafovutlarni qisqartirish, qishloq aholi hududlarini tubdan o'zgartirishning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Qishloq hududlariga umumiy xizmat qilish tarmoqlarining rivojlanish asosini moddiy-texnik baza tashkil etadi. Uni takomillashtirish esa tashkilot va muassasalarni hududlarda ratsional joylashtirish madaniy- maishiy xizmat qilishning yangi formalarini va metodlarini kiritish tashkilotlar va muassasalarning o'zaro funktsional aloqalarini rivojlantirish, yangi tipdagi binolarni yaratish, ularning tarkibini keng progressiv texnologiyalar va zamonaviy jihozlardan foydalanib yaxshilashdan iborat.

Shu bilan birga umumiy xizmat qilish tarmoqlari, qishloqlararo madaniy- maishiy xizmat ko'rsatishning yagona tizimi, ijtimoiy iqtisodiy shaharsozlikning kompozitsiyaviy shakllantirish shart-sharoitlari asosida ratsional bo'lgan qishloq jamoat markazini tashkil qilish muhim rol o'ynaydi. Jamoat maydonlari aholi yashaydigan joylarning arxitekturaviy kompozitsiya markazi hisoblanadi. Shuning uchun jamoat markazlarini loyihalashda asosiy vazifalardan biri ularning bosh arxitekturaviy ansamblni shakllantirish hisoblanadi. Jamoat markazlari katta funktsional ahamiyatga ega bo'lgan holda shu bilan bir vaqtda aholi turar joylarining arxitektura-loyihaviy kompozitsiya markazi hisoblanadi.

Respublikamiz shaharsozligini zamonaviy rivojlanish davrida qishloq aholisining joylashuv tizimi va rejaviy tuzilishini shakllantirish katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Bu muammoni to'g'ri yechimi qishloq aholisining yashash sharoiti ularning mehnati, turmush tarzi va dam olishi bilan bevosita bog'liq.

Qishloqlarda ishlab - chiqarishning hajmini agrosanoat va qishloq xo'jaligini birlashuvi bazasida kengayishi qishloq aholi hududlarining ijtimoiy va shaharsozlikdagi o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liq. Bu muammolarni yechishga davlatimiz katta mablag' ajratyapti. Hozirgi vaqtda qishloq aholisiga madaniy-maishiy xizmat qilish bazasi tezkor rivojlanmoqda.

Qishloq aholisiga xizmat qilishni takomillashtirish faktorlaridan biri ba'zibir sohalardagi texnik progressni rivojlanishi hisoblanadi. Bunga sog'liqni saqlashda masofali diagnostikani rivojlantirish, aholini buyurtmasiga asosan savdo qilish, maishiy xizmatni markaziy tashkil qilish, turli maxsus transport va aloqa vositalarini takomillashtirish kiradi. Bularning hammasi qo'yilgan vazifalarni yechishda yangi imkoniyatlarni ochadi, xizmat tarmoqlarining rivojlanish sur'atiga ta'sir etadi va jamoat binolari va inshootlarining tipologiyasini takomillashtiradi.

Qishloq aholisiga turar-joylararo madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishni oqilona tashkil etish alohida aholi guruhlarining ijtimoiy rivojlanishi sharoitida hududiy farqlarni tenglashtirishni nazarda tutadi va shuning uchun eng muhim vazifalardan biridir va shu bilan birga hududiy rejalashtirish usuli bilan hal etiladi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasining fazoviy tashkil etilishi aholining ijtimoiy-demokratik takror ishlab chiqarish sharoitlari, hududning iqtisodiy rivojlanish xarakteri va darajasi, aholi punktlari shakllari, muhandislik va transport infratuzilmasining rivojlanish holati bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, aholi punktlariga xizmat ko'rsatish tizimini oqilona tashkil etish talablari ko'pincha alohida aholi punktlari va turli darajadagi aholi punktlari tizimlarining rivojlanish ko'lamini, sur'ati va ketma-ketligini belgilaydi.

Qishloq aholisiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimida bajariladigan funksiyalarning xususiyatiga ko'ra madaniy-maishiy maqsadlardagi muassasalar, korxonalar va binolar ijtimoiy ahamiyati, ma'muriy-hududiy bo'linishi bo'yicha tasniflanishi mumkin.

Qishloqlararo madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqishda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

- madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishning hozirgi holatiga umumiy tavsif berish;
- aholining madaniy va maishiy xizmatlarga bo'lgan kelajakdagi ehtiyojlarining taxminiy hisob-kitobini amalga oshirish;
- hududda turli darajadagi turar-joylararo madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish markazlarini ularga qaratiladigan zonalar bilan aniqlab, aholiga bosqichma-bosqich qishloqlararo xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etishning asosiy sxemasini bajarish.

Qishloq aholisining joylashuv formalari va qishloq turar joylarining turlari respublikamiz hududlarida xilma-xil tashkil topgan.

Bu xilma-xillik qishloq turar joylarining sonida va ularning hududlarda joylashish xarakterida (tekis, lentasimon, zich), qishloq turar joylarining tuman markazlaridan va shaharlardan uzoqdaligida, transport kommunikatsiyalari bilan to'liq qoplanganligida, ichki ishlab-chiqarishlar, xo'jaliklararo o'zaro bog'liqligi, tumanlar va boshqa aloqalarni, hamda manzilgohlarning seraholiligi va ularni rejayiy tashkillashtirishni aniqlovchi asosiy ishlab - chiqarish va ma'muriy markazlarning ierarxik tuzilishida namoyon bo'ladi.

Respublika hududlarining fizik - geografik, tabiiy iqlim sharoitlariga qarab guruhlariga bo'linishi asosida qishloq joylashuv turlarida qishloqlarga madaniy - maishiy xizmat qilish tizimining regional farqlari aniqlangan.

Respublikamiz hududlarini zonalarga bo'linishi aholini joylashtirish sharoitlarida katta xilma - xillik va keskinliklarni aniqlab berdi. Bu xilma - xillik aholiga madaniy - maishiy xizmatni tashkil qilish va rivojlantirishda har bir joylashish zonasining o'ziga xos xarakterli tendentsiyalarini aniqlash imkoniyatini berdi.

Aholi turar joylarining siyrak tarmoqlari, cho'l, yarim cho'l va keskin ekstremal sharoitlarda yashash informatsiya vositalari, aloqa, transportni faol rivojlantirishni talab etadi. Bu hududlarga xizmat qilishning tabiiy - iqlim sharoitlari bilan bog'langan mavsumiy davrlarning almashlab turilishi, mahsulotlarni yetkazish va qishloq aholisiga xizmatni tashkil qilish, ularning dam olishi va muloqotga qulay va noqulay vaqtlarni aniqlash xarakterlidir. Aynan qulay davrda bu hududlarda madaniy - maishiy aloqalar faollashuvi zarur. Bunday sharoitlar jamoat binolarini qurish va loyihalashga maxsus talablarni aniqladi: konstruktiv talablar - devorlar to'siqlarining issiq va sovuqdan saqlash; loyihaviy - muassasalarni yopiq rejada ixcham hajmlarga birlashuvi va qo'shimcha maxsus xonalar zarurligi. Noqulay keskin iqlim sharoiti zonalarida kelajakda yangi davolash - reabilitatsiya binolarini yoki aholining qiziqishiga qarab shug'ullanishi uchun xonalarni yaratishni talab qiladi.

Bugungi kunda qishloq aholisining moddiy farovonligi o'sib borgan sari ularni qulay va shinam uylar va madaniy-maishiy xizmatning turlari bilan ta'minlashni jadallashtirishga zaruriyat tug'ilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X. M. Ubaydullaev, M.M. Inag'omova «Turar joy va jamoat binolari tipologik asoslari» T. 2009 g.
2. O.K. Gurulyov Arxitektura jil'ix i obshchestvennyx zdaniy dlya sela. M. 1988 .
3. Sh.R. Mirzaev Me'morchilik. Toshkent. 2010 y.
4. Mirzaev M.K. Tumanni rejalashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, TAQI, 2000.
5. Ismoilov T., Bayjanov A.R., Shahar va qishloqlardagi aholi punktlari loyihalarini tuzish va qurish asoslari.
6. ShNQ 2.07.01-03* Shaxarsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish. T. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi. 2009

7. ShNK 2.07.04-06 «Qishlok xo'jaligi korxonalari hududlarini me'moriy rejalashtirish va tashkil qilish» O'zbekiston Respublikasi «Davarxitektqurilish» qo'mitasi - Toshkent, 2006 y.